

“Mikrokreditbank” ATB
Boshqaruvining
2026-yil “12”-avgustdagi
№ 121-1 - sonli qarori bilan
“TASDIQLANGAN”

Tadbirkorlik subyektlariga ajratiladigan subsidiya, imtiyoz va preferensiyalardan maqsadli foydalanilishini ta'minlashda
“Mikrokreditbank” ATBning ishtiroki hamda ularning samaradorligini monitoring qilish tartibi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilayotgan subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalar (keyingi o'rinlarda – qo'llab-quvvatlash choralari) taqdim etilishini tizimli monitoring qilish, ularning samaradorligini baholash hamda asossiz olingan va maqsadsiz foydalanilgan qo'llab-quvvatlash choralarini qaytarib olish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda (Metodologiyada) quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

asossiz olingan qo'llab-quvvatlash choralari — subsidiya, imtiyoz va preferensiyalarni olish uchun soxta ma'lumot va hujjatlar taqdim etish orqali yoki mazkur choralarni qonunchilikda belgilanganidan boshqa yo'nalishlarda foydalanish uchun olish;

vakolatli organ — O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi;

ijtimoiy samaradorlik — ijtimoiy infratuzilma va tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish, uning ijtimoiy himoyasi va bandligini ta'minlash uchun qulay sharoitlar yaratilishini tasdiqlovchi qo'llab-quvvatlash choralari samaradorligi ko'rsatkichlari;

iqtisodiy samaradorlik — tadbirkorlik subyektlariga taqdim etiladigan qo'llab-quvvatlash choralarining tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga (xizmatlar va ishlab chiqarish hajmining o'sishi, eksport hajmi, sog'lom raqobat muhiti shakllanishi, xizmat turlari kengayishi va diversifikatsiyasi, daromadning oshishi va boshqalar) ta'sirini baholash;

maxsus vakolatli organlar — yengib bo'lmaydigan kuchlarning (fors-major holatlarining) bartaraf etilishi va tegishli xulosa taqdim etish uchun qonunchilik hujjatlari bilan vakolat berilgan davlat organlari;

maqsadsiz foydalanilgan qo'llab-quvvatlash choralari — qonunchilik hujjatlari hamda tuzilgan shartnomalar (bitimlar)ga muvofiq taqdim etilgan subsidiya, imtiyoz va preferensiyalarni belgilanganidan boshqa maqsadlar uchun sarflash;

moliyaviy (budjet) samaradorlik — taqdim etiladigan qo'llab-quvvatlash choralarining tadbirkorlik subyektining moliyaviy barqarorligi, sarmoyalarni jalb qilish imkoniyati oshishi hamda davlat budjetiga tushgan soliq va bojxona to'lovlari hajmining oshishiga ta'sirini baholash;

monitoring qilish — tadbirkorlik subyektlariga taqdim etiladigan qo'llab-quvvatlash choralaridan hamda ajratilgan imtiyozli kredit va subsidiyalardan foydalanishni maxsus axborot tizimlari orqali kuzatish hamda tahlil qilish jarayoni;

preferensiya — tadbirkorlik subyektlarining biror bir faoliyat turini qo'llab-quvvatlash uchun qonunchilikka muvofiq beriladigan ayrim turdagi afzallik va qulayliklar;

Respublika komissiyasi — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PQ-193-son qarori bilan tasdiqlangan Tadbirkorlik subyektlariga taqdim etiladigan subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalarni maqbullashtirish hamda ularning samaradorligini ta'minlash bo'yicha respublika komissiyasi;

samaradorlik ko'rsatkichi — tadbirkorlik subyektlariga taqdim etiladigan qo'llab-quvvatlash choralari natijasida erishiladigan ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlar (biznes-reja parametrlari va yangi ish o'rinlari yaratilishi);

samaradorlikni baholash — iqtisodiy, moliyaviy (budjet) va ijtimoiy samaradorlik ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda, tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan qo'llab-quvvatlash choralari natijalari va erishilgan ko'rsatkichlarini taqqoslash tartib-taomillari;

samaradorlikni dastlabki baholash — tadbirkorlik subyektlariga qo'llab-quvvatlash choralarini taqdim etadigan tashkilot (vazirlik, idora yoki birlashtirilgan bank) tomonidan erishilgan natijalarni o'z vakolati doirasida tadbirkorlik subyektlari kesimida baholash;

samaradorlikni yakuniy baholash — tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralarini vakolatli organ (Iqtisodiyot va moliya vazirligi) tomonidan samaradorlikni dastlabki baholash natijalari asosida ushbu Nizom talablariga muvofiq yakuniy baholash;

loyihalarni moliyalashtiruvchi manbalar — tadbirkorlik subyektlariga faoliyatini amalga oshirish maqsadida o'z mablag'lari, qarz yoki jalb qilingan davlat resurslarini, shu jumladan jamg'arma va subsidiya mablag'larini investitsiya qiluvchi subyektlar;

jamg'arma — Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi jamg'armalar, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi, Fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi hududiy jamg'armalar;



qo'llab-quvvatlash choralari — tadbirkorlik subyektlariga taqdim etiladigan subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalar;

subsidiya — tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida, ular tomonidan aniq maqsadli ko'rsatkichlarga erishilishi hamda belgilangan talablarga rioya etilishi sharti bilan, maqsadli yo'naltirish uchun qaytarib berilmaslik sharti bilan ajratiladigan, doimiy monitoring qilinadigan va samaradorligi baholanadigan, maqsadsiz yoki nomuvofiq foydalanilgan taqdirda qaytarib olinish choralari ko'riladigan davlat budjeti yoki jamg'arma mablag'laridir;

qo'llab-quvvatlash choralarining samaradorligi — qo'llab-quvvatlash choralaridan ko'zlangan biznes-reja ko'rsatkichlariga va belgilangan yangi ish o'rinlari yaratilishiga erishishning miqdoriy hamda sifat bahosi;

qo'llab-quvvatlash choralarini taqdim etadigan tashkilot (shuningdek — Mas'ul tashkilot) — qonunchilik hujjatlariga muvofiq tadbirkorlik subyektlariga qo'llab-quvvatlash choralarini taqdim etish bo'yicha ijobiy yoki salbiy xulosalar berish, shuningdek, ularning monitoringini yuritish va samaradorligini dastlabki baholash vakolati berilgan davlat organi yoki vakolatli tijorat banki;

tijorat banki ("Mikrokreditbank" ATB) — tadbirkorning loyihasini o'rganib, unga imtiyozli kredit yoki subsidiya mablag'larini ajratish (yoki ajratish bo'yicha xulosa berish) yuzasidan qaror qabul qiluvchi, berilgan qo'llab-quvvatlash choralari hamda imtiyozli mablag'lar maqsadsiz ishlatilayotganligini doimiy tekshirib boruvchi va biznes-rejadagi aniq maqsadli ko'rsatkichlarga erishilganini birinchi bo'lib nazorat qiluvchi tijorat tashkilotidir.

3. Ushbu Nizomning amal qilishi favqulodda holatlarda davlat va jamiyat ehtiyojlarini ta'minlash, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida, shuningdek, xalqaro shartnomalar asosida tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

4. Tadbirkorlik subyektlariga qo'llab-quvvatlash choralari doirasida ajratilgan imtiyozli kreditlar monitoring qilinadi, ularning samaradorligi baholanadi. Agarda, ushbu mablag'lar tegishli normativ-huquqiy hujjat talablariga nomuvofiq foydalanilgan deb topilsa, ularni qaytarish choralari ko'riladi. Maqsadli yo'naltirish shartlari bilan taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralari va imtiyozli kreditlash samaradorligi tegishli normativ-huquqiy hujjatlar hamda tadbirkorlik subyekti tomonidan erishilishi lozim bo'lgan aniq maqsadli ko'rsatkichlarga erishilganlik darajasini aniqlash orqali baholanadi.

5. Asossiz olingan va maqsadsiz foydalanilgan subsidiyalar, qo'llab-quvvatlash moliya mablag'lari hamda imtiyozli kreditlar muddatidan oldin ularni taqdim etgan tegishli manbaga (davlat budjetiga, jamg'armaga yoki bankka) majburiy tartibda undirib olinadi.

6. Qo'llab-quvvatlash choralarini taqdim etishda ularni taqdim etadigan tashkilot tomonidan tadbirkorlik subyekti erishishi lozim bo'lgan aniq maqsadli ko'rsatkichlar majburiy tartibda belgilanadi. Bunda, bank tadbirkorning biznes-rejasini o'rganib chiqib, unga imtiyoz berish evaziga aynan qanday aniq maqsadli ko'rsatkichlar (masalan: nechta yangi ish o'rni yaratish, ishlab

chiqarishni qanchaga oshirish) qo'yish kerakliquni belgilaydi yoki davlat organi bilan birgalikda tasdiqlaydi.

Tuziladigan shartnomada (bitimda) qo'llab-quvvatlash choralaridan maqsadsiz, samarasiz yoki qonunchilikka zid ravishda foydalanganlik holatlari aniqlangan taqdirda, berilgan resurs tegishli budjetga (jamg'armaga) yoki bankka muddatidan oldin qaytarib olinishi hamda qoidabuzar tadbirkorlik subyektiga kelgusida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralaridan foydalanish huquqi berilmasligi haqidagi shartlar qat'iy aks ettiriladi. Bunda, bank tadbirkor va davlat jamg'armasi (yoki mas'ul tashkilot) bilan tuziladigan uch tomonlama (yoki ikki tomonlama) kredit shartnomasiga pul maqsadsiz ishlatilsa, uni muddatidan oldin qaytarib olish haqidagi bandlarni kirituvchi va ijrosini nazorat qiluvchi tomon sifatida namoyon bo'ladi.

Agar monitoring davomida ajratilgan imtiyozli kredit mablag'lari maqsadsiz ishlatilgani aniqlansa, bank tomonidan tadbirkorga ixtiyoriy qaytarish to'g'risida talabnoma yuboriladi, mablag'lar belgilangan muddatda qaytarilmagan taqdirda esa bank tomonidan shartnomaga asosan inkasso topshiriqnomasi qo'yish yoki materiallarni sudga kiritish choralari ko'riladi.

Agar subsidiya (davlat budjeti) mablag'laridan maqsadsiz yoki asossiz foydalanilganligi aniqlansa, bank tomonidan tadbirkorga ixtiyoriy qaytarish talabnomasi yuboriladi, mablag'lar belgilangan muddatda qaytarilmagan taqdirda esa majburiy undirish choralarini (inkasso topshiriqnomasi qo'yish yoki materiallarni sudga kiritishni) qo'llash uchun tegishli hujjatlar va monitoring xulosasi 3 (uch) ish kunida mablag' ajratgan mas'ul davlat organiga (yoki Jamg'armaga) topshiriladi.

7. Qo'llab-quvvatlash choralarini taqdim etadigan tashkilot ushbu choralarining har bir turi bo'yicha o'z axborot tizimida tizimli monitoringni amalga oshiradi hamda samaradorlikni dastlabki baholash ishlarini yuritadi. Ushbu jarayonda bank davlat organining "Mas'ul tashkilot" sifatidagi dasturiy ta'minotidan va o'zining ichki avtomatlashtirilgan bank tizimidan foydalanadi. Tadbirkor imtiyozli kredit yoki subsidiya pulini boshqa korxonaga o'tkazish uchun to'lov topshiriqnomasini taqdim etganda, bank tizimidagi nazorat filtrlari va mas'ul xodimlar to'lov topshiriqnomasini hamda undagi maqsadni (elektron hisob-fakturani) biznes-reja shartlariga muvofiqligi bo'yicha masofaviy monitoringdan o'tkazadi. Shuningdek, o'zining axborot tizimida shakllangan monitoring natijalari va aniq maqsadli ko'rsatkichlarni idoralararo elektron tizim orqali tegishli vazirlik (idora)ning axborot bazasiga yuboradi.

2-bob. Qo'llab-quvvatlash choralarini taqdim etadigan tashkilotning (Mas'ul tashkilotning) ba tijorat bankining asosiy vazifa va majburiyatlari

8. Mas'ul tashkilot (vazirlik, idora yoki jamg'arma) quyidagilar uchun mas'ul va javobgar hisoblanadi:

Subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalarni amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq, faqat aniq belgilangan maqsadli yo'nalishlar uchun taqdim etilishini ta'minlash;

Tadbirkorlik subyektlariga qo'llab-quvvatlash choralarining qonuniy taqdim etilishini hamda tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan talablar asosida erishilishi lozim bo'lgan aniq maqsadli ko'rsatkichlarga erishishini tizimli nazorat qilib borish;

Ajratilgan qo'llab-quvvatlash choralari monitoringini tegishli raqamlashtirilgan dasturlar va axborot tizimlari orqali yuritish hamda ularning samaradorligini dastlabki baholash jarayonlarini amalga oshirish;

Asossiz olingan, maqsadsiz, samarasiz yoki noqonuniy foydalanilgan subsidiyalar va preferensiyalarni majburiy tartibda davlat budjetiga yoki tegishli jamg'armalarga qaytarilishini (undirilishini) tashkil qilish.

9. Mas'ul tashkilotning asosiy majburiyatlari quyidagilardan iborat:

Qo'llab-quvvatlash choralarini tegishli qonunchilik hujjatlarida belgilangan barcha mezon, talab va shartlarga to'liq mos keluvchi tadbirkorlik subyektlarigagina taqdim etilishini tashkil etish;

Taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralaridan tadbirkorlik subyektlari maqsadli foydalanishi hamda buning natijasida lozim bo'lgan aniq maqsadli ko'rsatkichlarga erishishini idoralararo elektron axborot almashinuvi platformalari orqali doimiy monitoring qilish;

Qo'llab-quvvatlash choralaridan tadbirkorlik subyektlari samarali foydalanishini tahlil qilish va samaradorlikni dastlabki baholash ko'rsatkichlarini tizimda shakllantirish;

Qo'llab-quvvatlash choralaridan samarasiz hamda maqsadsiz foydalangan tadbirkorlik subyektlarining avtomatlashtirilgan elektron reyestrini shakllantirish;

Asossiz olingan hamda maqsadsiz foydalanilgan davlat mablag'larini (subsidiyalarni) banklar taqdim etgan salbiy monitoring xulosalari va dalolatnomalari asosida majburiy tartibda tegishli budjetga qaytarish choralarini ko'rish;

Iqtisodiyotga ijobiy ta'siri kuzatilmayotgan hamda samaradorligi past va samarasiz deb topilgan qo'llab-quvvatlash choralarining kelgusida taqdim etilishini to'xtatish yoki butunlay bekor qilish yuzasidan vakolati doirasida Vakolatli organga hamda Respublika komissiyasiga asoslantirilgan takliflar kiritish.

10. Tijorat banki ("Mikrokreditbank" ATB) quyidagilar uchun mas'ul va javobgar hisoblanadi:

Imtiyozli kredit yoki subsidiya olish istagida bo'lgan tadbirkorning loyihasini texnik, iqtisodiy va moliyaviy jihatdan amaldagi bank tartib-taomillariga muvofiq o'rganish;

Mas'ul tashkilotning dastlabki tavsiyanomasi (xulosasi) asosida loyihani moliyalashtirish yoki resurs ajratish yuzasidan yakuniy qaror qabul qilish;

Ajratilgan mablag'larning tadbirkorning hisobvarag'idan maqsadsiz chiqib ketmasligini bank ichki nazorat tizimi va monitoring filtrlari orqali doimiy kuzatish (monitoring qilish);

Biznes-rejadagi maqsadlarga erishilganini va loyihaning ishga tushganligini joyiga chiqqan holda vizual tekshirish (kredit monitoringi) va

natijasi yuzasidan mas'ul tashkilotni belgilangan tartibda tizimli ravishda xabardor qilish.

11. Tijorat bankining ("Mikrokreditbank" ATB) asosiy majburiyatlari quyidagilardan iborat:

Qo'llab-quvvatlash choralari (kredit/subsidiya) doirasidagi arizalarni ko'rib chiqishda ularning faqat qonunchilik hamda bank ichki siyosati talablariga 100% mos keladigan tadbirkorlarga berilishini tashkil etish;

Ajratilgan mablag'larning maqsadli ishlatilishi va biznes-reja ko'rsatkichlariga erishilishini bankning monitoring dasturlari va idoralararo elektron platformalar orqali doimiy kuzatib borish;

Tadbirkorning mablag'lardan samarali foydalanayotganini tahlil qilish va tizimda boshlang'ich baholash ko'rsatkichlarini shakllantirish;

Imtiyozlardan maqsadsiz va samarasiz foydalangan tadbirkorlarning ichki elektron ro'yxatini (reyestrini) tuzish hamda ularga kelgusida bank tomonidan qayta imtiyozli resurslar ajratilishini cheklash;

Maqsadsiz yoki asossiz ishlatilgan imtiyozli va maqsadli moliya mablag'larini shartnomaviy-huquqiy asoslarda (inkasso topshiriqnomasi qo'yish yoki sud orqali) muddatidan oldin undirish choralarini ko'rish, subsidiyalar bo'yicha esa majburiy undirish uchun tegishli materiallar va monitoring xulosasini 3 (uch) ish kunida vakolatli davlat organiga (mablag' ajratuvchiga) taqdim etish;

Ko'rsatkich belgilash, monitoring va baholash jarayonlarini bank vakolati doirasida to'liq raqamlashtirib, bank axborot tizimining axborot xavfsizligi talablariga muvofiq integratsiya qilinishini ta'minlash;

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash va subsidiyalash tizimini takomillashtirish hamda optimallashtirish bo'yicha Vakolatli organga takliflar kiritish.

3-bob. Qo'llab-quvvatlash choralarini oluvchi tadbirkorlik subyekting majburiyatlari

12. Qo'llab-quvvatlash choralarini (subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalarni) hamda imtiyozli va maqsadli moliya mablag'larini oluvchi tadbirkorlik subyekting majburiyatlari quyidagilardan iborat:

Maqsadli foydalanish: Davlat va bank tomonidan ajratilgan qo'llab-quvvatlash choralari hamda moliya mablag'laridan faqat normativ-huquqiy hujjatlarda va tuzilgan shartnomalarda (bitimlarda) belgilangan qat'iy maqsadli yo'nalishlar bo'yicha foydalanish;

Ko'rsatkichlarga erishish: Taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralari natijasida tegishli qonunchilik hujjatlari hamda shartnomaga muvofiq belgilangan aniq biznes-reja ko'rsatkichlariga (ishlab chiqarish hajmlari, yangi ish o'rni yaratish, eksport hajmini oshirish va boshqalar) belgilangan muddatlarda to'liq erishilishini ta'minlash;

Qonunchilik me'yorlariga rioya etish: Qo'llab-quvvatlash choralaridan hamda ajratilgan moliya mablag'laridan foydalanishning butun davri davomida amaldagi soliq, bojxona, mehnat, bank va boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan majburiy me'yor hamda talablarga qat'iy amal qilish;

Ma'lumotlarning shaffofligi: Samaradorlikni dastlabki va yakuniy baholash uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlarning tegishli vazirlik, idoralar va bankning axborot tizimlarida real vaqt rejimida to'g'ri hamda shaffof aks ettirilishini ta'minlash, noto'g'ri yoki soxta ma'lumotlar (hujjatlar) kiritilishiga yo'l qo'ymaslik;

Mablag'larni qaytarish: Qo'llab-quvvatlash choralaridan hamda moliya mablag'laridan maqsadsiz foydalanganlik holatlari yoki belgilangan biznes-reja ko'rsatkichlariga belgilangan muddatlarda erishilmaganligi aniqlangan taqdirda, olingan subsidiyalar va moliya mablag'larini qonunchilikda hamda shartnomada belgilangan tartibda tegishli davlat budjetiga, jamg'armalarga yoki bankka (manbasiga qarab) muddatidan oldin to'liq qaytarish.

4-bob. Monitoring o'tkazish tartibi

13. Bank tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralari (subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalar) hamda imtiyozli va maqsadli moliya mablag'lari samaradorligini dastlabki baholash ishlarini ularga ushbu choralarni taqdim etishda belgilangan hamda tadbirkorlik subyektlari tomonidan erishilishi lozim bo'lgan aniq biznes-reja ko'rsatkichlarining bajarilishini monitoring qilish orqali amalga oshiradi.

14. Bank qo'llab-quvvatlash choralari hamda moliya mablag'lari taqdim etilishi, ulardan tadbirkorlik subyektlari tegishli qonunchilik hujjatlari hamda tuzilgan shartnomaga (bitimga) muvofiq maqsadli foydalanishini o'zining ichki axborot tizimlari va masofaviy nazorat dasturlari orqali monitoring qiladi. Bunda, tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralaridan maqsadli foydalanish jarayoni bank tizimidagi nazorat filtrlari hamda vazirlik va idoralararo elektron axborot almashinuvi platformalari orqali monitoring qilinadi.

15. Elektron monitoring tizimi orqali shubhali yoki qonunbuzilish belgilariga ega holatlar aniqlangan taqdirda, taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralari va moliya mablag'laridan maqsadli foydalanish holati bank xodimlari tomonidan joyiga chiqqan holda o'rganiladi. Joyiga chiqqan holda o'tkaziladigan shartnomaviy monitoring ishlari bank ichki tartiblariga muvofiq, tadbirkorlik subyekting normal faoliyat yuritishiga to'sqinlik qilmagan holda, 3 (uch) ish kunidan oshmagan muddatda amalga oshiriladi.

16. Bank qo'llab-quvvatlash choralari hamda moliya mablag'larini taqdim etishda o'z axborot tizimida biznes-reja ko'rsatkichlarini belgilash, monitoring qilish va samaradorlikni baholashga oid jarayonlarni raqamlashtiradi hamda bank siri va axborot xavfsizligi talablariga rioya etgan holda, Iqtisodiyot va

moliya vazirligining "subsidiya.mf.uz" platformasi bilan o'zaro xavfsiz elektron ma'lumot almashinuvini yo'lga qo'yadi.

17. Tadbirkorlik subyektlariga qo'llab-quvvatlash choralari ajratilishi hamda ularning keyingi samaradorligi "subsidiya.mf.uz" platformasi orqali elektron shaklda kuzatib boriladi. Bunda, bank axborot tizimi orqali masofaviy yoki belgilangan tartibda joyiga chiqqan holda o'tkazilgan monitoring natijalari bo'yicha hisobotlar (xulosalar) "subsidiya.mf.uz" platformasiga o'zaro avtomatlashtirilgan axborot almashinuvi kanallari orqali taqdim etib boriladi.

18. Tadbirkorlik subyektlariga qo'llab-quvvatlash choralarini hamda moliya mablag'larini taqdim etishga asos bo'ladigan hujjatlarning to'g'riligi va haqqoniyligi, jumladan, soliq va bojxona imtiyozlarini qo'llash uchun asos bo'luvchi ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar (litsenziyalar, guvohnomalar, reyestr ma'lumotlari va boshqalar) Raqamli hukumat platformalari hamda idoralararo elektron axborot almashinuvi orqali avtomatik ravishda tekshiriladi va tasdiqlanadi.

19. Har bir tadbirkorlik subyektiga qo'llab-quvvatlash choralarini hamda moliya mablag'larini taqdim etishda, shu jumladan tuziladigan shartnomada (bitimda) samaradorlik mezonlariga muvofiq belgilangan aniq biznes-reja ko'rsatkichlari (yaratiladigan yangi ish o'rinlari, ishlab chiqarish va eksport hajmlari) bankning monitoring axborot tizimiga majburiy tartibda kiritiladi.

20. Tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralari qonuniy olingani, ulardan maqsadli foydalanishi bo'yicha bank tomonidan doimiy masofaviy va joyidagi monitoring yo'lga qo'yilib, shartnomaga asosan erishilishi lozim bo'lgan aniq biznes-reja ko'rsatkichlariga erishilishi tizimli nazorat qilib boriladi.

5-bob. Samaradorlikni baholash mezonlari

21. Bank tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralarining (subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalarning) hamda imtiyozli va maqsadli moliya mablag'larining samaradorligini dastlabki baholashda quyidagi guruhlangan mezonlardan foydalanadi:

a) Iqtisodiy samaradorlik mezonlari:

Bank tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari ajratilgan tadbirkorlik subyektining bank hisobvarag'idagi pul aylanmalari (pul oqimlari) hajmining o'sishi;

Tadbirkorlik subyektining taqdim etilgan biznes-reja parametrlariga muvofiq ishlab chiqarish mahsulotlari yoki ko'rsatilgan xizmatlar hajmini oshirishi;

Tarmoq xususiyatidan va loyiha maqsadidan kelib chiqib, tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha tushumlarning ko'payishi.

b) Moliyaviy samaradorlik mezonlari:

Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etilgan biznes-reja ko'rsatkichlarining to'liq va shartnomada belgilangan muddatlarda bajarilishi;



Qo'llab-quvvatlash choralari berilishi natijasida tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorlashishi (zararsiz faoliyat yuritishi, debitorlik va kreditorlik qarzdorliklarining maqbullashishi);

Idoralararo elektron ma'lumot almashinuvi tizimi orqali olingan ma'lumotlar asosida tadbirkorlik subyekti tomonidan soliq hisobotlarining o'z vaqtida topshirilishi.

d) Ijtimoiy samaradorlik mezonlari:

Tadbirkorlik subyektlari tomonidan tuzilgan shartnomalarga va taqdim etilgan biznes-rejaga muvofiq yaratilgan haqiqiy yangi ish o'rinlari soni;

Yaratilgan yangi ish o'rinlarining shartnomada belgilangan uzoq muddat (kamida 1 yil) davomida barqaror saqlab qolinishi;

Aholi bandligini ta'minlash doirasida xotin-qizlar, yoshlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam vakillarining ish bilan ta'minlanganlik darajasi.

6-bob. Samaradorlikni baholash tartibi

22. Samaradorlik imtiyozli kredit taqdim etilgunga qadar o'tgan uch yillik davrni imtiyozli kreditlarning amal qilish muddatiga (imtiyozli kredit joriy etilganiga uch yil bo'lmagan bo'lsa, o'tgan yilga nisbatan) taqqoslash orqali baholanadi.

23. Samaradorlikni baholashda manbalardan quyidagi ketma-ketlikda foydalaniladi:

tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy, soliq hisobotlari;

sohaviy idoralar yoki statistika idoralari ma'lumotlari;

imtiyozli kreditlar natijalari yuzasidan tadbirkorlik subyekti tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar.

24. Samaradorlik har bir tadbirkorlik subyekti uchun iqtisodiy, moliyaviy (budjet) va ijtimoiy mezonlar bo'yicha alohida baholanadi.

25. Bitta tadbirkorlik subyekti uchun imtiyozli kreditlarning iqtisodiy samaradorligi kredit taqdim etilishi natijasida haqiqatda erishilgan iqtisodiy ko'rsatkichning kredit taqdim etilishida reja qilingan iqtisodiy ko'rsatkichga (maqsadli ko'rsatkich) nisbatini hisoblash orqali baholanadi:

$$C_{\text{iqt}} = \frac{\sum_{k=1}^N \frac{K_{\text{fakt}_k}}{K_{\text{reja}_k}}}{H},$$

$S_{\text{iqt}} =$, bu yerda:

$K_{\text{reja}_1}, K_{\text{reja}_2}, K_{\text{reja}_3}, \dots, K_{\text{reja}_n}$ — kredit taqdim etilishida reja qilingan iqtisodiy ko'rsatkich;

$K_{\text{fakt}_1}, K_{\text{fakt}_2}, K_{\text{fakt}_3}, \dots, K_{\text{fakt}_n}$ — kredit taqdim etilishi natijasida haqiqatan erishilgan iqtisodiy ko'rsatkich;

N — kredit taqdim etilishi natijasida erishilishi rejalashtirilgan iqtisodiy ko'rsatkichlar soni.

$S_{iqt} \geq 1$ holatlarda $S_{iqt} = 1$ sifatida qabul qilinadi.

Agar:

$S_{iqt} = 1$ bo'lsa, kredit yuqori iqtisodiy samarali;

$0,7 \leq S_{iqt} < 1$ bo'lsa, kredit iqtisodiy samarali;

$0,5 \leq S_{iqt} < 0,7$ bo'lsa, kredit o'rtacha iqtisodiy samarali;

$S_{iqt} < 0,5$ bo'lsa, kredit iqtisodiy samarasiz.

26. Bitta tadbirkorlik subyekti uchun imtiyozli kreditning moliyaviy (budjet) samaradorligi ko'rsatkichi oxirgi hisobot yili va oldingi hisobot yili uchun Davlat budjetiga va maqsadli jamg'armalarga tushgan soliq, bojxona va boshqa to'lovlarning umumiy summasi farqining oxirgi hisobot yili uchun taqdim etilgan kreditlarning umumiy miqdoriga nisbatini hisoblash orqali baholanadi:

$S_b = (B_t - B_{t-1})/Q$, bu yerda:

S_b — moliyaviy (budjet) samaradorlik ko'rsatkichi;

Q — oxirgi hisobot yili uchun taqdim etilgan imtiyozli kreditlarning umumiy miqdori;

B_t — oxirgi hisobot yili uchun Davlat budjetiga va maqsadli jamg'armalarga tushgan soliq, bojxona va boshqa to'lovlarning umumiy summasi;

B_{t-1} — oxirgi hisobot yilidan oldingi hisobot yili uchun Davlat budjetiga va maqsadli jamg'armalarga tushgan soliq, bojxona va boshqa to'lovlarning umumiy summasi.

$S_b \geq 1$ holatlarda $S_b = 1$ sifatida, $S_b \leq 0$ holatlarda $S_b = 0$ sifatida qabul qilinadi.

Agar:

$S_b = 1$ bo'lsa, kredit yuqori moliyaviy samarali;

$0,7 \leq S_b < 1$ bo'lsa, kredit moliyaviy samarali;

$0,5 \leq S_b < 0,7$ bo'lsa, kredit o'rtacha moliyaviy samarali;

$S_b < 0,5$ bo'lsa, kredit moliyaviy samarasiz.

27. Bitta tadbirkorlik subyekti uchun imtiyozli kreditlarning ijtimoiy samaradorligi kredit taqdim etilishi natijasida haqiqatan erishilgan ijtimoiy ko'rsatkichning kredit taqdim etilishida reja qilingan ijtimoiy ko'rsatkichiga nisbatini hisoblash orqali baholanadi:

$$C_{\text{ijkt}} = \frac{\sum_{k=1}^N \frac{K_{\text{fakt}_k}}{K_{\text{reja}_k}}}{H},$$

$S_{ijt} =$, bu yerda:

$Kreja_1, Kreja_2, Kreja_3, \dots Kreja_n$ — kredit taqdim etilishida reja qilingan ijtimoiy ko'rsatkich;

$K_{\text{fakt}_1}, K_{\text{fakt}_2}, K_{\text{fakt}_3}, \dots K_{\text{fakt}_n}$ — kredit taqdim etilishi natijasida haqiqatan erishilgan ijtimoiy ko'rsatkich;

N — kredit taqdim etilishi natijasida erishilishi rejalashtirilgan ijtimoiy ko'rsatkichlar soni.

$S_{ijt} \geq 1$ holatlarda $S_{ijt} = 1$ sifatida qabul qilinadi.

Agar:

$S_{ijt} = 1$ bo'lsa, kredit yuqori ijtimoiy samarali;

$0,7 \leq S_{ijt} < 1$ bo'lsa, kredit ijtimoiy samarali;

$0,5 \leq S_{ijt} < 0,7$ bo'lsa, kredit o'rtacha ijtimoiy samarali;

$S_{ijt} < 0,5$ bo'lsa, kredit ijtimoiy samarasiz.

28. Bitta tadbirkorlik subyekti uchun imtiyozli kreditning samaradorligini baholash tahlil qilingan davr uchun iqtisodiy, budget (moliyaviy) va ijtimoiy mezonlari bo'yicha ballar yig'indisining o'rtacha ko'rsatkichi sifatida hisoblanadi:

$K_s = (S_{iqt} + S_b + S_{ijt})/3$, bu yerda:

K_s — samaradorlik ko'rsatkichi;

S_{iqt} — iqtisodiy samaradorlik;

S_b — moliyaviy (budget) samaradorlik;

S_{ijt} — ijtimoiy samaradorlik.

Kreditlarning samaradorligi maksimal 1 balli shkalada baholanadi:

$K_s = 1$ bo'lsa, kredit yuqori samarali;

$0,7 \leq K_s < 1$ bo'lsa, kredit samarali;

$0,5 \leq K_s < 0,7$ bo'lsa, kredit o'rta samarali;

$K_s < 0,5$ bo'lsa, kredit samarasiz.

29. Tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilgan imtiyozli kreditlarning umumiy samaradorligi barcha tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilgan kredit samaradorligining tadbirkorlik subyektlari soniga nisbatini hisoblash orqali baholanadi:

$$K_{c,um.} = \frac{\sum_{i=1}^M K_{si}}{M},$$

$K_{s,um.} =$, bu yerda:

$K_{s,um.}$ — kreditning umumiy samaradorlik ko'rsatkichi;

K_{si} — kreditning n-korxona uchun samaradorlik ko'rsatkichi;

M — kreditdan foydalangan tadbirkorlik subyektlari soni.

$K_{si} \geq 1$ holatlarda $K_{si} = 1$ sifatida qabul qilinadi.

Agar:

$K_{si} = 1$ bo'lsa, kredit yuqori samarali;

$0,7 \leq K_{si}$

$0,5 \leq K_{si} < 0,7$ bo'lsa, kredit o'rtacha samarali;

$K_{si} < 0,5$ bo'lsa, kredit samarasiz.

30. Imzolangan kredit shartnomalari (bitimi)da belgilangan samaradorlik ko'rsatkichlarining ijro darajasi 1 balli shkalada bo'lganda 100 foiz hisoblanadi.

Tadbirkorlik subyekting umumiy samaradorlik ko'rsatkichi 50 foizdan kam bo'lishi imtiyozli kreditdan samarasiz va maqsadsiz foydalangan deb xulosa berishga asos bo'ladi.

31. Taqdim etilgan imtiyozli kreditdan tadbirkorlik subyektlarining 50 foizidan ortiq qismi samarasiz yoki maqsadsiz foydalangani aniqlanishi mazkur yo'nalishdagi kreditlarni ajratishni bekor qilish yuzasidan taklif tayyorlashga asos bo'ladi.

32. "Mikrokreditbank" ATB o'zi mas'ul bo'lgan har bir turdagi imtiyozli kreditlardan tadbirkorlik subyektlari kesimida belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishilganini, samarali foydalanilganini tahlil qiladi hamda samaradorligini dastlabki baholaydi;

Bunda imtiyozli kreditlar samarasiz deb topilganda, ularni bekor qilish yuzasidan taklif tayyorlaydi.

Imtiyozli kreditlarning samaradorligini dastlabki baholash natijalari bo'yicha hisobotni har yili 1-iyulga qadar vakolatli organga taqdim etadi.

33. "Mikrokreditbank" ATB samaradorlikni dastlabki baholash maqsadida zarur hollarda vazirliklar va idoralar, korxonalar, muassasalar hamda vakolatli organlarning mutaxassislari, shuningdek, ekspertlarni jalb qilishi mumkin.

7-bob. Asossiz olingan va maqsadsiz foydalanilgan qo'llab-quvvatlash choralarini qaytarib olish tartibi

34. Bank tadbirkorlik subyektiga taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralaridan (subsidiyalar, imtiyozlar, preferensiyalar) hamda imtiyozli va maqsadli moliya mablag'laridan maqsadli foydalanilgani hamda ularning asosli olingani yuzasidan tizimli monitoring olib boradi.

35. Tadbirkorlik subyektiga taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash chorolari (subsidiyalar va moliya mablag'lari) quyidagi hollarda muddatidan oldin qaytariladi:

Tuzilgan shartnoma (bitim) bo'yicha tadbirkorlik subyekti tomonidan erishilishi lozim bo'lgan aniq biznes-reja ko'rsatkichlari (shu jumladan yangi ish o'rinlari yaratish majburiyati) belgilangan muddatlarda bajarilmaganda;

Ajratilgan mablag'lardan maqsadsiz foydalanilgani aniqlanganda (bunda maqsadsiz foydalanilgan mablag'lar qismiga mutanosib ravishda yoki qonunchilikda belgilangan hollarda to'liq hajmda qaytarib olinadi);

Qo'llab-quvvatlash choralarini oluvchi tadbirkorlik subyekti tomonidan olingan subsidiyalar va moliya mablag'larini olish uchun tegishli hujjatlar yoki ma'lumotlarni noto'g'ri yoxud buzib ko'rsatish orqali asossiz olingani holatlari aniqlanganda.

36. Asossiz olingani yoki maqsadsiz foydalanilgani aniqlangan qo'llab-quvvatlash chorolari (subsidiyalar) hamda moliya mablag'lari quyidagi tartibda qaytariladi:

Bank tadbirkorlik subyektiga ajratilgan mablag'larni ixtiyoriy ravishda qaytarish to'g'risida rasmiy talabnoma yuboriladi.

Talabnomada quyidagi ma'lumotlar bo'lishi zarur:

- 1) Qo'llab-quvvatlash chorasining asossiz olingani yoki undan maqsadsiz foydalanilganini asoslantiruvchi monitoring dalolatnomalari va hujjatlar;

- 2) Qaytarib olinadigan mablag' yoki subsidiyaning aniq summasi;
- 3) Mablag'larni qaytarish muddati. Bunda mablag'larni ixtiyoriy ravishda qaytarishning minimal muddati bank tomonidan 10 (o'n) ish kuni etib belgilanadi.

Tadbirkorlik subyekti belgilangan muddatda talabnomada ko'rsatilgan mablag'larni ixtiyoriy ravishda qaytarmasa, "Mikrokreditbank" ATB o'z resurslari (kreditlari) bo'yicha mustaqil ravishda inkasso topshiriqnomasi qo'yadi yoki sudga da'vo arizasi kiritadi. Subsiya mablag'lari bo'yicha esa, to'plangan barcha monitoring hujjatlari va materiallarini 3 (uch) ish kunida majburiy undirish choralari ko'rish uchun tegishli davlat organiga (mablag' ajratuvchi vazirlik yoki jamg'armaga) yuboradi.

37. "Mikrokreditbank" ATB tomonidan amaldagi qonunchilikka muvofiq o'tkazilgan monitoring va tahlillar natijasida qo'llab-quvvatlash chorasini oluvchi tadbirkorlik subyekti mansabdor shaxslarining harakatlarida jinoyat, shu jumladan, firgarlik, o'zlashtirish yoki korrupsiyaga oid huquqbuzarlik alomatlari aniqlanganda, bank to'plangan hujjatlarni belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etadi.

38. Tadbirkorlik subyekti bank filiallari tomonidan o'tkazilgan monitoring xulosalaridan norozi bo'lgan taqdirda, bankning yuqori turuvchi organiga (Bosh bankka) apellatsiya tartibida yoki qonunchilikda belgilangan tartibda bevosita sud organlariga e'tiroz bildirishga haqli.

39. Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major holatlari) yuzaga kelishi natijasida belgilangan biznes-reja ko'rsatkichlariga erishilmaganda, taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralari va moliya mablag'lari muddatidan oldin qaytarib olinmaydi. Bunda fors-major holatlari yuzaga kelgan tadbirkorlik subyekti ushbu holatlarni tasdiqlovchi maxsus vakolatli organning (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi yoki qonunchilikda belgilangan boshqa vakolatli idoralarning) tegishli xulosasini (sertifikatini) bankka taqdim etishi lozim.

40. Tadbirkorlik subyektlariga qo'llab-quvvatlash choralari (subsidiyalarni) va moliya mablag'larini amaldagi qonunchilik va ichki tartib qoidalariga zid ravishda asossiz berilishi yoki monitoring jarayonida qonunbuzilish holatlarini yashirish holatlari yuzasidan "Mikrokreditbank" ATBning mas'ul xodimlari va mansabdor shaxslariga nisbatan amaldagi qonunchilik hujjatlariga hamda bankning ichki mehnat intizomi qoidalariga muvofiq qat'iy javobgarlik choralari ko'riladi.

8-bob. “Mikrokreditbank” ATB tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralaridan foydalanish natijadorligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ochiq e’lon qilib borish

41. “Mikrokreditbank” ATB taqdim etilgan qo‘llab-quvvatlash choralaridan (subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalardan) foydalanish natijadorligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qo‘llab-quvvatlash chorasining turi va tadbirkorlik sohalari kesimida o‘zining rasmiy veb-sahifalari hamda ochiq axborot tizimlari orqali doimiy ravishda e’lon qilib boradi.

42. “subsidiya.mf.uz” platformasida qo‘llab-quvvatlash choralaridan (subsidiyalardan) maqsadsiz foydalangan tadbirkorlik subyektlari, tegishli tadbirkorlik sohalari, qo‘llab-quvvatlash chorasining turi hamda Davlat budjetiga (yoki tegishli jamg‘armalarga) qaytarilgan mablag‘lar miqdori kabi ma’lumotlar jamoatchilik uchun ochiq e’lon qilib boriladi.

43. “Mikrokreditbank” ATB ushbu Nizomning 28-bandida ko‘rsatilgan ma’lumotlarning real vaqt rejimida shakllanishini va “subsidiya.mf.uz” platformasiga avtomatlashtirilgan elektron tizim orqali muntazam ravishda kiritib borilishini ta’minlaydi.

9-bob. Yakuniy qoidalar

44. Qo‘llab-quvvatlash choralarini oluvchi tadbirkorlik subyektlari “Mikrokreditbank” ATBga belgilangan biznes-reja ko‘rsatkichlarining bajarilishi bo‘yicha o‘z vaqtida ma’lumotlarni taqdim etmasligi yoki tizimlarga ishonchsiz va yolg‘on ma’lumotlarni kiritganligi uchun amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladi.

45. Qo‘llab-quvvatlash choralarini oluvchi tadbirkorlik subyektlariga qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgarlik choralari qo‘llanishi ularni “Mikrokreditbank” ATBga monitoring va baholash uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etish majburiyatidan ozod qilmaydi.

46. “Mikrokreditbank” ATB o‘ziga berilgan vakolatlarni amalga oshirishi munosabati bilan ma’lum bo‘lgan tijorat siri, bank siri yoki qonunchilik bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirlarni tashkil etuvchi ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor qilishga hamda qonunga xilof ravishda foydalanishga haqli emas.

47. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar (shu jumladan, bank mas’ul xodimlari va tadbirkorlik subyektlari) amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradi.

Tadbirkorlik subyektlariga
ajratiladigan subsidiya, imtiyoz va
preferensiyalardan maqsadli
foydalanilishini ta'minlashda
"Mikrokreditbank" ATBning
ishtiroki hamda ularning
samaradorligini monitoring qilish
tartibi to'g'risida
Nizomga
ILOVA

**Tadbirkorlik subyektlariga ajratiladigan subsidiya, imtiyoz va
preferensiyalardan maqsadli foydalanilishini ta'minlashda
"Mikrokreditbank" ATBning ishtiroki hamda ularning samaradorligini
monitoring qilish tartibi to'g'risida**

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Chora-tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Mikrekreditbank ATB	Barcha intiyozli kreditlar haqidagi ma'lumotlarni "subsidiya.mf.uz" platformasidagi reyestrda kiritadi.	2026-yil 1-mart
2-bosqich	Mikrekreditbank ATB	1. Imtiyozli kreditlarning har bir turi bo'yicha tizimli monitoring qilish va samaradorligini dastlabki baholash ishlarini amalga oshiradi. 2. Imtiyozli kreditlarning har bir turi bo'yicha samaradorlikni dastlabki baholash natijasida tayyorlangan hisobotni Iqtisodiyot va moliya vazirligiga kiritadi.	Har yili 20-iyunga qadar Har yili 1-iyulga qadar
3-bosqich	Mikrekreditbank ATB	Tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilgan Imtiyozli kreditlarning maqsadli foydalanilishi hamda asosli olinishi yuzasidan monitoring olib boradi.	Doimiy ravishda



4-bosqich	Mikrekreditbank ATB	Tadbirkorlik subyektiga ajratilgan Imtiyozli kreditlarni ixtiyoriy ravishda qaytarish to'g'risida talabnoma yuboradi.	Kreditdan maqsadsiz foydalanilgani yoki asossiz olingani aniqlangan taqdirda
5-bosqich	Tadbirkorlik subyeksi	Maqsadsiz foydalanilgan yoki asossiz olingan imtiyozli kreditni qaytaradi.	Talabnomada ko'rsatilgan muddatda
6-bosqich	Mikrekreditbank ATB	Tadbirkorlik subyeksi belgilangan muddatda talabnomada ko'rsatilgan imtiyozli kreditni qaytarmaganda, ajratilgan kreditni qaytarish to'g'risida sudga da'vo arizasini kiritadi.	Talabnomada ko'rsatilgan muddatda qaytarilmagan taqdirda

